



2025-yil 3-yanvar

“O'zkimyosanoat” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi 2024-yil hisoboti

2024-yil davomida “O'zkimyosanoat” AJga jami 394 ta (2023-yilda 510 ta) ariza va shikoyatlar kelib tushgan. Viloyatlar kesimida tahlil qilinganida, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 10 ta, Buxoro viloyatidan 2 ta, Jizzax viloyatidan 3 ta, Qashqadaryo viloyatidan 86 ta, Navoiy viloyatidan 124 ta, Namangan viloyatidan 2 ta, Samarqand viloyatidan 9 ta, Surxandaryo viloyatidan 2 ta, Toshkent viloyatidan 108 ta, Farg'ona viloyatidan 6 ta, Andijon viloyatidan 1 ta, Xorazm viloyatidan 1 ta, Toshkent shahridan 31 ta, boshqa hududlardan 9 ta ariza va shikoyatlar kelib tushgan bo'lib, ulardan 64 tasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va qonunbuzilish holatlari haqidagi murojaatlardir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi arizalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning 21 tasi aloqa kanallari orqali, 18 yozma ravishda, 25 tasi jamiyatning pochta manzili orqali kelib tushgan.

Murojaatlar hududlar kesimida tahlil qilinganda 12 tasi Qashqadaryo viloyati, 22 tasi Navoiy viloyati, 30 tasi Toshkent shahrida yashaydigan fuqarolardan kelib tushganligi ma'lum bo'ldi.

Barcha murojaatlar tegishligi bo'yicha “O'zkimyosanoat” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi hamda tizim korxonalari Komplayens xizmati xodimlari bilan hamkorlikda o'rganib chiqilgan.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni o'rganishlar natijasida 5 ta holatda to'plangan hujjatlar holatlarga huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan, 2 ta murojaatda manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi o'z tasdig'ini topganligi munosabati bilan faoliyat yuritayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish choralari ko'rilgan va 14 ta holatda mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.

Misol uchun, fuqaro M.Sh. ning arizasi asosida “Navoiyazot” AJ mansabdor shaxsi J.Sh. o'z mansab vakolatidan foydalanib u tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida rasmiylashtirilgan dalolatnomalarni korxonada xodimlariga bosim o'tkazish orqali o'z manfaatlarini yo'lida qalbakilashtirganligi holati yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza etuvchi idoralarga yuborilgan.

Shuningdek, fuqaro M.M. va M.S. larning murojaati asosida “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Kadrlar bo'limi boshlig'i U.N. ga nisbatan uning manfaatlar to'qnashuvi holatini sodir ekanligi, o'z faoliyatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yib kelganligi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, xizmat tekshiruvi natijasi bo'yicha unga nisbatan “hayfsan” intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

Bundan tashqari, aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma'lumotlar asosida joriy yilning may oyida “Navoiyazot” AJga tegishli 45-sonli vakolatli ijara omboridagi mavjud mineral o'g'itlar qoldig'i

sanoqdan o'tkazilib ichki hisobotlar taqqoslanganda jami 1,5 tonna (5,2 mlrd so'mlik) mineral o'g'itlar kamomadi aniqlanib, tegishli tartibda rasmiylashtirildi. Ko'rilgan choralar natijasida ushbu vakolatli ijara ombori tomonidan jamiyat manfaatlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zarar to'liq miqdorda qoplanilishiga erishildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan korrupsion va boshqa qonunbuzilish holatlarining kelib chiqish sabab va omillari tahlil qilinib, mavjud korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning 2025-yil uchun mo'ljallangan rejasi tasdiqlandi. Shuningdek, kelib tushgan murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan holatlarning salbiy oqibatlari, korxonalar va tashkilotlardagi mansabdor shaxslarning javobgarligi masalasini kuchaytirish mavzularida "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi rahbarligida jamiyat shaxsiy tarkibi va tarmoq korxonalarini rahbarlari ishtirokida bir necha marotaba profilaktik suhbat va seminar tadbirlari o'tkazilgan.

M.Asrorov,

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig'i v.v.b.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/report-2024>